



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

1 / 2022



TAHRIR HAY'ATI:

N. SALAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

I. ERGASHEV

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

U. MUXAMEDOV

Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Toshkent shahar yuridik texnikumi direktori, yuridik fanlar doktori, professor

S. GULYAMOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro xususiy huquq" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

O. OKYULOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

M. AXMEDSHAYEVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

U. TUXTASHEVA

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

SH. SAYDULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy huquq" fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

X. XAYITOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

SH. XO'JAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

D. XABIBULLAYEV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

SH. ISMOILOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Mehnat huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

G. TULAGANOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat-protsessual huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

N. RAXMONKULOVA

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti "Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

J. NEMATOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

G. UZAKOVA

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ekologiya huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

A. MUXAMEDJANOV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

R. KUCHKAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

SH. XAYDAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

SH. ASADOV

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

D. XUDOYNAZAROV

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida o'qituvchisi – mas'ul muharrir

MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

"Юриспруденция" правовой научно-практический журнал

"Jurisprudence" legal scientific-practical journal

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ
NAZARIYASI VA TARIXI.
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 YUNUSOV HAYDARALI MURATOVICH**
Saraxsiy – islom uyg'onish davrining
yirik huquqshunosi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 15 NE'MATOV JO'RABEK NE'MATILLOYEVICH**
O'zbekistonda ma'muriy odil sudlov
muammolari va ma'muriy sudlar faoliyati
samaradorligini oshirish imkoniyatlari

- 30 SUVANOV SARDOR BAXADIROVICH**
Taraqqiyot strategiyasida belgilangan
sud-huquq sohasiga oid maqsadlarni amalga
oshirishning ilmiy-nazariy asoslari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.
TADBIRKORLIK HUQUQI.
OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 38 YAKUBOVA IRODA BAHRAMOVNA**
Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni
"kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv" asosida
amalga oshirish

- 49 SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH**
Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav
jamg'armasidagi qarzdor ulushini
majburlashning o'ziga xos xususiyatlari

- 65 XALILOVA ZEBINISO ERKINOVNA**
Xalqaro investitsiya huquqiy rejimida davlat
korxonalarining roli

12.00.04 – FUQAROLIK
PROTSESSUAL HUQUQI.
XO‘JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA
MEDIATSIYA

- 75 ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**
Fuqaroning layoqati (huquq va muomala) bilan bog‘liq ishlar: nazariy tahlil va amaliy natijalar
- 84 HAQBERDIYEV ABDUMUROD
ABDUSAIDOVICH**
Hakamlik sudining tuzilishida hakamlik bitimi
- 95 DAVRONOV DONIYORBЕК ABDULLO O‘G‘LI**
Xorij mamlakatlarida fuqarolik protsessual majburlov choralari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.
EKOLOGIK HUQUQ

- 105 MAHKAMOV DURBEK NE‘MATOVICH**
O‘simlik dunyosiga oid qonunchilikda ekologik va mulkiy munosabatlar tahlili

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.
PROKUROR NAZORATI.
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.
ADVOKATURA

- 114 IBRAGIMOV DIYORBЕК SHUHRAT O‘G‘LI**
Voyaga yetmaganlar sohasida qonuniylikni ta‘minlashda prokuror nazorati va idoraviy nazorat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI,
HUQUQBUZARLIKLARNING
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 123 ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ**
Вопросы анализа социально-правовых факторов легализации преступных доходов

134 ISLOMOV BUNĒD OCHilOVICH

Обстоятельства, смягчающие наказание и
исключающие преступность деяния по
уголовному законодательству Французской
Республики (сравнительный анализ)

**149 BOYDEDAYEV SADIRDIN
ABDUSATTOROVICH**

Korrupsiya tushunchasi: tahlil va taklif

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.
KRIMINALISTIKA,
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA
SUD EKSPERTIZASI

156 БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА

Ограничение права на молчание
в уголовном судопроизводстве:
опыт Австралии

**165 UTEPOV DAUREN PAKHATOVICH
ZHEMPIISOV NAZARBEEK SHARUNOVICH**

Legal basis for collection and attachment of
digital information as proof in criminal cases in
Republic of Kazakhstan

175 URALOV SARBON SARDOROVICH

Sud muhokamasida isbot qilish predmeti
sifatida preyditsiyadan foydalanish masalalari

UDC: 347.78(575.1)

MUALLIFLIK HUQUQI VA TURDOSH HUQUQLARNI “KENGAYTIRILGAN JAMOAVIY BOSHQARUV” ASOSIDA AMALGA OSHIRISH

Yakubova Iroda Bahramovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Intellectual mulk huquqi” kafedrası dotsenti, PhD
e-mail: i.yakubova@tsul.uz
ORCID: 0000-0003-0151-1921

Annotatsiya. Maqolada mavzu doirasida yangi, yuqori texnologiyali sohalarda nafaqat mualliflarga – mualliflar jamiyati a’zolariga, balki boshqa barcha mualliflarga, shu jumladan, noma’lum mualliflarga nisbatan ham amalga oshiriladigan butunlay boshqa turdagi jamoaviy boshqaruvga ehtiyoj borligi va uning ahamiyati yoritib berilgan. Aynan ushbu mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni amalga oshirish tizimi ba’zan “kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv” deb ataladi. Shuningdek, mualliflik huquqi doirasida huquq egalari, jamoaviy boshqaruv tashkilotlari tomonidan berilgan vakolatlar asosida o’z nomidan asarlar (mualliflik va turdosh huquqlar obyektlari)dan foydalanadigan shaxslar bilan shartnomalar tuzish, mualliflik huquqi egalari to’lovlarni yig’ish, tarqatish va to’lash masalalari ham atroflicha o’rganilgan. Ushbu institutni takomillashtirish bilan bog’liq ayrim dolzarb muammolar, mualliflik huquqini himoya qilishning xalqaro standartlari va milliy qonunchilikning qiyosiy-huquqiy tahlili, shuningdek, O’zbekiston va boshqa mamlakatlar olimlarining fikrlariga e’tibor qaratilgan. Mualliflik huquqini rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega taklif va tavsiyalar ilgari surildi. Shuningdek, intellektual mulk huquqi olimlarning mavzuga oid ilmiy qarashlari tahlillari natijalariga asoslanib, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni “kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv” asosida amalga oshirish usullari va uning samaradorligi, ushbu huquqlardan foydalanishning natijadorligi kabi tushunchalarning ta’riflari hamda “agentlik turidagi jamoaviy boshqaruv”ni amalga oshirish uchun intellektual mulk huquqining maxsus qoidalari, prinsiplari ilmiy asoslangan holda o’rganilgan.

Kalit so’zlar: mualliflik huquqi, mualliflik shartnomalari bo’yicha haq to’lash, mualliflik huquqini amalga oshirish, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarish, asarni omma oldida ijro etish, kengaytirilgan jamoaviy boshqarish.

РЕАЛИЗАЦИЯ АВТОРСКИХ И СМЕЖНЫХ ПРАВ НА ОСНОВЕ «РАСШИРЕННОГО КОЛЛЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ»

Якубова Ирода Бахрамовна,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
доцент кафедры «Право интеллектуальной собственности»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Тема освещает необходимость и важность совершенно иного типа коллективного управления в новых, высокотехнологичных областях, которое касается не только авторов – членов авторского общества, но и всех других авторов, в том числе неизвестных. Именно эту систему авторского права и смежных прав иногда называют

«расширенным коллективным управлением». В рамках предмета подробно были изучены, как правообладатели заключают договоры с лицами, использующими произведения (объекты авторского права и смежных прав) от своего имени на основании полномочий, предоставленных организациями коллективного управления, а также сбор, распределение и выплата роялти правообладателям. Уделено внимание некоторым актуальным проблемам, связанным с совершенствованием данного института, международными стандартами защиты авторских прав, проведен сравнительно-правовой анализ национального законодательства, а также мнений ученых Узбекистана и других стран. Были выдвинуты предложения и рекомендации, имеющие научное и практическое значение для национального законодательства в области авторского права. Также по результатам анализа научных взглядов ученых на право интеллектуальной собственности определены способы реализации авторских и смежных прав на основе «расширенного коллективного управления», его эффективность и действенность, а также «коллективного управления агентского типа». С научной стороны изучены специальные нормы и принципы права интеллектуальной собственности.

Ключевые слова: авторские права, вознаграждение по авторским договорам, защита авторских прав в принудительном порядке, коллективное управление авторскими и смежными правами, объекты авторских и смежных прав, публичное исполнение произведения.

REALIZATION OF COPYRIGHT AND RELATED RIGHTS ON THE BASIS OF «EXTENDED COLLECTIVE MANAGEMENT»

Yakubova Iroda Bahramovna,

Associate Professor of the Department of Intellectual property law
of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

Abstract. *The topic highlights the need and importance of a completely different type of collective management in new, high-tech fields, which applies not only to authors - members of the author's society but also to all other authors, including unknown authors. It is this system of copyright and related rights that is sometimes referred to as "extended collective management". Within the framework of the subject, it was studied in detail how right holders enter into agreements with persons using works (objects of copyright and related rights) on their own behalf on the basis of powers granted by collective management organizations, as well as collection, distribution and payment of royalties to right holders. Attention is paid to some urgent problems related to the improvement of this institution, international standards for copyright protection and comparative legal analysis of national legislation, as well as the opinions of scientists from Uzbekistan and other different countries. Suggestions and recommendations were put forward of scientific and practical importance for national copyright law. Also, based on the results of the analysis of the scientific views of scholars on intellectual property law, the definition of methods of implementation of copyright and related rights on the basis of "extended collective management" and its effectiveness, the effectiveness of these rights and "agency-type collective management" The special rules and principles of intellectual property law have been studied on a scientific basis.*

Keywords: *copyright, to enforce copyright, royalty, copyright and related rights collective management, public performance or display of a work, objects of copyright and related rights, extended collective management*

Kirish

Asarlardan foydalanishning yangi yuqori texnologik sohalarida mualliflik huquqini

amalga oshirishning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklari tufayli huquqlarni jamoaviy boshqarishning turli xil ko'rinishlari

tobora keng qo'llanilmoqda. Shu bois asarlar va turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanuvchi shaxslar ko'plab mualliflar va boshqa huquq egalari bilan shartnoma tuzish o'rniga, ularning manfaatlarini ifoda etuvchi va "mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish" deb nomlangan ixtisoslashgan tashkilot bilan shartnoma tuzish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Ko'p hollarda bunday sxema mualliflarning foydalanuvchilar bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish huquqlarini cheklamaydi, balki ularni mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy amalga oshirish imkoniyati bilan ta'minlaydi. Ko'pincha "mualliflik huquqlari jamiyatlari" deb nomlanadigan jamoaviy boshqaruv tashkilotlari har bir mualliflik huquqi egasiga foydalanuvchilardan olingan mablag'larni yig'adi va to'laydi. Buning natijasida huquq egalari ularga tegishli bo'lgan haqni oladi, foydalanuvchilar esa o'z faoliyatini qonuniy ravishda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xo'sh, ushbu jamoatchilik boshqaruvi nima uchun kerak va u qanday tamoyillarga asoslanadi? Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun hujjatlari asar muallifiga asardan har qanday shaklda foydalanishning mutlaq huquqini beradi, ushbu huquqning ruxsat etilgan cheklanishlarini to'liq belgilaydi. Agar asar mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo'lsa, unda siz muallif yoki uning merosxo'rlari bilan shartnoma tuzish orqali undan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishingiz mumkin.

Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish instituti tufayli mualliflik huquqlari individual asosda amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan mutlaq mulk huquqlarini amalga oshirishi mumkin. Aynan mazkur institutning samarali faoliyat ko'rsatishi O'zbekistonning mualliflik huquqi sohasida imzolagan shartnomalari doirasidagi majburiyatlarini bajarish imkoniyatini oshirishda muhim o'rin tutadi [1].

Dramatik asarlarning teatrlashtirilgan ijrosi "qisman jamoaviy boshqaruv" yoki

"agentlik tipidagi jamoaviy boshqaruv" deb ataladigan eng qadimgi va eng tipik namuna bo'lib, unda muallif jamoaviy boshqaruv tashkilotiga muayyan foydalanuvchilar bilan individual shartnomalar tuzish uchun faqat vositachilik faoliyatini samarali amalga oshirishga vakolat beradi. Chet elda, odatda, mualliflik jamiyatlari va teatrlarni ifodalovchi tashkilotlar o'rtasida umumiy xarakterdagi shartnomalar tuziladi. Ular ba'zi asosiy shartlarni, xususan, mualliflik haqining asosiy (odatda, minimal) stavkasini o'z ichiga oladi. Har bir teatr tomonidan har bir asarga nisbatan tuziladigan maxsus shartnomalar, odatda, bosh shartnomaning asosiy shartlariga asoslanadi, lekin undan farq qilishi ham mumkin.

Mualliflik huquqi jamiyati har safar har bir aniq shartnomani tuzish uchun muallifdan rozilik so'rashi kerak, ya'ni bu holda u faqat muallifning vakili, agenti sifatida ishlaydi.

Shubhasiz, "agentlik turidagi jamoaviy boshqaruv"ni amalga oshirish uchun fuqarolik huquqining umumiy qoidalari asosida uchinchi shaxslarning manfaatlarini bunday shaxslar bilan tuzilgan har xil turdagi shartnomalar (agentlik, topshiriqlar va boshqalar) orqali ifodalashning o'zi yetarlidir. Mualliflik huquqini himoya qilishning bu turi, odatda, "katta huquq"qa (pyesalar, operalar va h.k.) ega bo'lgan asarlar uchun qo'llaniladi. Bunday hollarda "agent turini jamoaviy boshqarish", odatda, ancha barqaror, uzoq muddatli amaliyotga asoslanadi hamda nazariy va huquqiy asoslash nuqtai nazaridan jiddiy qiyinchiliklarga olib kelmaydi.

Material va metodlar

Intellektual mulk huquqi olimlarning mavzuga oid ilmiy qarashlari tahlillari natijalariga asoslanib, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni "kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv" asosida amalga oshirish usullari va uning samaradorligi, ushbu huquqlardan foydalanishning natijadorligi kabi tushunchalarning ta'riflari hamda "agentlik turidagi ja-

moaviy boshqaruv”ni amalga oshirish uchun intellektual mulk huquqining maxsus qoidalari, prinsiplari ilmiy asoslangan holda taklif qilangan.

Intellektual bilimlarning (ilmiy, ilmiy-amaliy va o’quv adabiyotlar) yig’indisi qiyosiy-huquqiy tahlili bilan birgalikda, ilmiy bilimlarning moddiylashgan bankini tashkil etadi hamda intellektual mulk huquqi fani bu bilimlarni amaliy sohalarida qo’llashlari uchun huquq sohasi mutaxassislari va huquq egalari taqdim qiladi.

Tadqiqot natijalari

Mualliflik huquqi egalari tegishli bo’lgan ko’plab asarlardan foydalanishning qonuniyligini ta’minlash muammosi birinchi marta “musiqqa sohasida”, ayniqsa, keskinlashdi. Ko’pgina foydalanuvchilar (konsert tashkilotchilari, radiokompaniyalar va boshqalar) o’z faoliyatining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, juda ko’p sonli odamlarga tegishli bo’lgan huquqlari “kichik shakllar” deb ataladigan turli musiqiy asarlardan operativ ravishda foydalanishga majbur bo’lishadi. “Kichik shakllar” yoki “kichik huquqlar” asarlari, odatda, kichik musiqqa asarlari – qo’shiqlar, kuylar, musiqiy parchalarni anglatadi. Bu nom shartli hisoblanadi. Ko’pincha adabiyotlarda ma’lum bir tavnologiyani ham topishingiz mumkin: “kichik huquqlar” asarlariga, odatda, jamoaviy boshqaruv va jamoaviy boshqaruv “kichik huquqlar” asarlariga nisbatan amalga oshiriladi [3, 27-38-b.].

“Kichik huquqlar” va “katta huquqlar”ni ushbu toifalardan biriga kiruvchi maxsus foydalanish holatlarini sanab o’tish orqali tavsiflash ancha muvaffaqiyatli ko’rinadi. Albat, bunday ro’yxat faqat tegishli huquqlarni amalga oshirish bo’yicha uzoq muddatli ish amaliyotini umumlashtirishga asoslangan bo’lishi mumkin.

Shuningdek, professor E.P. Gavrilov an’anaviy shakllarda (teatr, konsert, sahna, sirk, diskotekalar va boshqalar) asarlar va turdosh huquqlar obyektlarini omma oldida ijro etishda quyidagilarni ajratib ko’rsatadi [4, 425-446-b.]:

1) “katta huquqlar” – spektakllar, pyesalar, baletlar, operalar, operettalardan foydalanishda;

2) “kichik huquqlar” – “kichik shakldagi mualliflik asarlari – qo’shiqlar, kichik musiqalar, estrada chiqishlari va boshqalarni omma-viy ijro etish” uchun.

Shu bilan birga, professorning ta’kidlashicha, “katta huquqlar” ba’zi hollarda “mulkiy huquqlarning jamoaviy boshqaruvini amalga oshirishga to’g’ri keladi”.

Bundan tashqari, professor Isyaog o’z ma’ruzasida, asarlardan foydalanishning yangi usullarida an’anaviy “kichik huquqlar” va “katta huquqlar”ga bo’linish jamoaviy boshqariladigan huquqlar ro’yxatining kengayishi tufayli asta-sekin o’z ahamiyatini yo’qotmoqda, deb fikr bildirib o’tgan [5, 23-30-b.].

Kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv tizimi dastlab musiqiy asarlarga bo’lgan “kichik huquqlar” sohasida (ayniqsa, Ikkinchi jahon urushidan keyin Yevropada) keng tarqaldi. Chunki, masalan, radioeshittirishda katta hajmli va ko’pincha aniqlanmagan repertuarlardan foydalanish zarurati mavjud edi, shuningdek, foydalanuvchilar mualliflik huquqi egalari har biri bilan shartnoma tuza olmas edi.

Kengaytirilgan jamoaviy boshqaruvni amalga oshiruvchi tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar bo’yicha foydalanuvchilar qaysi asar namunalaridan va necha marta ulardan foydalanilganligi to’g’risida ma’lumot taqdim etgan holda, haqni bunday tashkilotga o’tkazishlari mumkin.

Jamoaviy boshqaruv tashkiloti foydalanuvchilaridan olingan haqni alohida huquq egalari uchun yig’adi, taqsimlaydi va to’laydi yoki uni xorijiy huquq egalari taqsimlash uchun xorijiy sheriklariga o’tkazadi.

Shunday qilib, kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv tizimlari (mualliflik jamiyatlari va ular o’rtasida tuzilgan o’zaro vakillik to’g’risidagi shartnomalar) mavjudligi sababli foydalanuvchi ruxsat olish uchun faqat o’zining

milliy mualliflik huquqi jamiyatiga murojaat qilishi kerak. Buning yordamida u keng qamrovli ruxsatni ta'minlaydigan ushbu yagona operatsiya orqali dasturiy ravishda tuzishi mumkin bo'lgan asarlarni erkin tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi [6, 45–57-b.].

Natijada mualliflik huquqi egalari o'zlariga tegishli haqni oladilar, foydalanuvchilar esa zarur huquqiy natijaga erishish uchun minimal xarajatlar bilan qonuniy asosda o'z faoliyatini amalga oshiradi. Ammo kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv tizimining eng katta "foydasini" jamiyat a'zolari – jamiyat fuqarolari uchundir. Ular bunday tizim tufayli dunyodagi eng keng asarlar repertuaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Jamoaviy boshqaruv tizimi, birinchi navbatda, huquq egalarning manfaatlariga xizmat qilsa-da, foydalanuvchilarga imtiyozlar beradi va shu tariqa ular o'zlariga zarur bo'lgan asarlarga eng sodda yo'l bilan qonuniy ruxsat olishlari mumkin. Jamoaviy boshqaruv kompaniyasi bilan "shartnoma" tuzib, foydalanuvchilar darhol tuganmas keng repertuardan qonuniy foydalanadilar [7, 28–37-b.].

Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish tizimida bir nechta rejim mavjud bo'lib, ular orasida Qo'shma Shtatlar boshchiligidagi raqobat usullari va Germaniya, Italiya va boshqa mamlakatlardagi kabi monopolistik rejimlar bor. Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish tizimi kech boshlangan mamlakat sifatida mamlakatning milliy sharoitlariga mos keladigan jamoaviy boshqaruv tizimini tanlash Xitoyda mualliflik huquqini rivojlantirish uchun, ayniqsa, muhimdir.

An'anaviy jamoaviy boshqaruv usullarini raqobat rejimi va monopolistik rejimga bo'lish mumkin. Raqobat rejimi raqobatga urg'u bersa, monopolistik rejim jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining monopolistik maqomini ta'kidlaydi, ular bilan davlat tashkilotlarini tashkil etishni qat'iy cheklaydi va tartibga soladi. Aslida, Xitoy jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining monopolistik maqomini saqlab, ularning mutlaq ruxsatnomala-

rining qonuniyligini tan olgan holda, raqobatni istisno qiladigan va monopoliyalarni saqlaydigan markazlashtirilgan litsenziyalashning paketli boshqaruv usulini tanladi. Xitoyning akademik doiralari raqobatbardosh yoki monopolistik rejimni qo'llash borasida tortishuvlarga sabab bo'lmoqda. Ba'zi olimlar hali ham monopolistik rejimni tanlaydilar, chunki u savdo samaradorligi va mualliflik huquqini jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining obro'sini oshirishi mumkin, deb hisoblaydilar. Ba'zilar buni hisobga olib, raqobat rejimini afzal ko'radilar. Monopolistik rejim jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining bozordagi hukmron mavqeyini suiiste'mol qilishi va mualliflik huquqi egalari hamda uchinchi shaxslarning manfaatlariga zarar yetkazishiga osonlikcha olib keliishi mumkin. Raqobat rejimi esa mualliflik huquqining xususiy huquq avtonomiyasi tamoyilini amalga oshiradi va mualliflik huquqi egalarning mustaqil tanlash huquqini hurmat qiladi. Ba'zi olimlar esa cheklangan raqobat va oqilona monopoliyalar bilan jamoaviy boshqaruv usulini targ'ib qiladilar, ya'ni ayrim turdagi ishlar uchun yagona jamoaviy boshqaruv tashkilotini tashkil etish bilan birga, har xil turdagi ishlarni kompleks boshqarish xizmatlarini ko'rsata oladigan kompleks boshqaruv tashkiloti ham tashkil etiladi.

2001-yilda mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun qayta ko'rib chiqilgandan beri Xitoy mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish tizimini qonun shaklida belgilab berdi. "Mualliflik huquqi to'g'risida"gi Qonunning VIII moddasi asosida keyinchalik e'lon qilingan "Mualliflik huquqi jamoaviy boshqaruv to'g'risida"gi Nizomda mualliflik huquqining huquqiy mohiyatini aniq ko'rsatuvchi mualliflik huquqi jamoaviy boshqaruv tashkilotlarini tashkil etish, tarkibi, boshqaruv faoliyati, nazorati va boshqaruv bo'yicha aniq qoidalar belgilangan. Shu bilan birga, u jamoaviy boshqaruv tashkilotlarini tashkil etish shartlarini belgilaydi, huquq egalarning manfaat-

lari butun mamlakat bo'ylab ifodalanishini talab qiladi va tizim nuqtai nazaridan tadbirkorlik sohasidagi boshqa jamoaviy boshqaruv tashkilotlari o'rtasidagi raqobatni istisno qiladi. Shu bilan birga, mamlakatimizda mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish uchun institutsional monopolistik maqomga ega bo'lish imkonini beruvchi xususiy jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining mavjudligini inkor etadi.

1939-yilda Yaponiya mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish tizimiga oid "Mualliflik vositachiligi to'g'risida"gi Qonunni e'lon qildi. 2001-yilda bu qonun bekor qilindi va "Mualliflik huquqi va qo'shni huquqlarni boshqarish to'g'risida"gi Qonun kuchga kirdi. Avvalgi "Mualliflik huquqi to'g'risida"gi "vositachilik faoliyati to'g'risida"gi Qonundan farqli o'laroq, ikkinchisi hali ham monopolistik jamoaviy boshqaruv rejimini nazarda tutsa-da, vakolatli muassasalarning vakolatlari qisqartirildi. Mualliflik huquqini boshqarish bo'yicha tadbirkorlik subyektlarining asosiy malakasi nuqtai nazaridan, bu endi mutlaqo vakolatli litsenziyalash tizimi emas, balki u ro'yxatga olish tizimiga o'tkazildi va mualliflik huquqi to'g'risidagi qoidalar ham tasdiqlash tizimidan e'longa o'zgartirildi. Umuman olganda, Yaponiyaning mualliflik huquqini boshqarish bozoriga kirish nisbatan erkin bo'lib, bu bozor operatsiyalari samardorligini oshirdi.

O'zbekiston Respublikasi "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonuniga (57-moddasi 4-qismi) binoan, huquq egalari boshqaruvchilarga nisbatan bunday shartnomalar asosida ularning asarlaridan va turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish bilan bog'liq barcha ehtimol tutilgan mulkiy e'tirozlari shartnomalar tuzgan mulkiy huquqlar jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot tomonidan tartibga solinishi kerak (xususan, foydalanish faktining o'zi, foydalanganlik uchun haq to'lash va boshqalar bilan bog'liq). Binobarin, shartnoma tuzgan foydalanuvchilar huquq egalari-

ning da'volaridan himoyalangan bo'lib, muqarrar ravishda moddiy yo'qotishlar va ishbilarmonlik obro'siga putur yetkazishdan saqlanadi.

Agar mualliflik huquqini amalga oshirishning odatiy individual usullarida foydalanuvchilar faqat mualliflik huquqi egasi bilan kelishuvga binoan ruxsat olgan asarlardan foydalanishlari mumkin bo'lsa, kengaytirilgan jamoaviy boshqaruvda "teskari prezumpsiya" shakli mavjud: tegishli toifadagi har qanday asardan mutlaqo foydalanish mumkin, jamoaviy boshqaruv tashkiloti repertuaridan maxsus chiqarib tashlanganlar bundan mustasno. Albatta, bu yerda faqat foydalanuvchi va jamoaviy boshqaruv tashkiloti o'rtasidagi kelishuv bilan belgilangan juda aniq foydalanish (masalan, radio orqali uzatish) haqida gap ketyapti.

Bunday "teskari prezumpsiya" foydalanuvchilar uchun jamoaviy boshqaruv tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma asosida mualliflik huquqi bilan himoyalangan har qanday obyektlardan tegishli tarzda foydalanish imkoniyatini anglatadi. Albatta, yuqorida ta'kidlaganimizdek, to'g'ridan to'g'ri mualliflik huquqi egalari tomonidan bunday tashkilot repertuaridan maxsus chiqarib tashlanganlarning cheklangan soni bundan mustasnodir. Bunday tizimning foydalanuvchilar va jamoatchilik uchun afzalliklari shubhasizdir – foydalanuvchilar mualliflik huquqi yoki turdosh huquqlarning tegishli obyektlarining butun dunyo repertuaridan, jamiyatning barcha a'zolari esa huquqlarni amalga oshirish jarayonini arzonlashtirishi natijasida unga kirish narxini minimallashtirishi sababli madaniy yutuqlarning eng keng doirasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Huquq egalari uchun bunday tizim, agar u to'g'ri ishlayotgan bo'lsa, juda foydali, chunki u huquq egalari quyidagilarga imkon beradi [8]:

1) individual nazorat qilish imkoniyati bo'lmagan hollarda, o'z asarlaridan va turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish

ustidan samarali nazoratni amalga oshirish (hech bir agentlik yoki boshqa vositachilar mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarishning normal faoliyat ko'rsatadigan tizimlar, shu jumladan, dunyoning turli mamlakatlarida manfaatlarning o'zaro ifodalanishini hisobga olgan holda, keng qamrovli nazorat tizimini taqdim eta olmaydi);

2) o'z huquqlarini amalga oshirish xarajatlarini minimallashtirish (huquqiy, "ma'muriy", tranzaksiya xarajatlari va boshqalar);

3) foydalanuvchilar uchun nafaqat eng ommabop, balki deyarli barcha boshqa asarlardan (jamoat repertuaridan maxsus chiqarib tashlanganlaridan tashqari) intensivikasiya foydalanishning qulay bo'lish imkoniyati tufayli qo'shimcha daromad olish; boshqaruv tashkiloti).

Albatta, kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv tamoyillari mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bilan himoyalangan obyektlardan foydalanishning barcha holatlarida qo'llanilmaydi. Shubhasiz, agar ishlardan ommaviy foydalanilmasa va foydalanuvchilar va huquq egalari o'rtasida nisbatan arzon to'g'ridan to'g'ri aloqalarni o'rnatish imkoniyati mavjud bo'lsa, kengaytirilgan jamoaviy boshqaruvdan foydalanishning maqsadga muvofiqligi yo'q [9, 66–74-b.].

Kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv alohida huquq egalari to'lanadigan haq miqdori bir-biridan sezilarli darajada farq qiladigan (shu jumladan, muomala yoki asarlardan foydalanish hajmi bilan bog'liq boshqa belgilarga bevosita bog'liq bo'lmagan) foydalanish uchun qo'llanilmaydi. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, ommaviy madaniyatning rivojlanishi va ayniqsa, yangi texnologiyalarning rivojlanishi bilan asarlardan foydalanishning bunday sohalari nisbiy ulushi pasayib bormoqda. Bunda haq to'lash jamoatchilikning asarga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq emas, balki boshqa parametrlarga ham bog'liq bo'lib qoladi.

Kengaytirilgan jamoaviy boshqaruvda huquq egalari manfaatlariga zarar yet-

kazishi mumkin bo'lgan yagona istisno, ehtimol, soxta jamoaviy boshqaruv tashkilotlarini yaratish yoki uni qo'llash mumkin bo'lmagan sohalarda foydalanish orqali firibgarlik maqsadlarida foydalanishga urinishdir [10].

Shuni ta'kidlash kerakki, rivojlangan milliy jamoaviy boshqaruv tizimi bilan bunday harakatlar uchun imkoniyatlar mavjud emas. Misol tariqasida Rossiya davlatini oladigan bo'lsak, (asosan, jamoaviy boshqaruv tashkilotlarini yaratish va ularning faoliyati ustidan tegishli davlat nazorati yo'qligi, ayniqsa, bunday tashkilotlarni shakllantirish davrida zarur bo'lganligi sababli ham) bir necha bor firibgarlik harakatlariga urinishlar sodir etilgan. Biroq ular vaqtida aniqlandi va huquq egalari manfaatlariga jiddiy zarar yetkazmadi. Hozirgi vaqtda Rossiya mualliflar jamiyati rossiyalik huquq egalari manfaatlarini himoya qilmoqda [11, 36-b.].

Bundan tashqari, jamoaviy boshqaruvning o'zbek modeliga ko'ra, huquq egalari har doim jamoaviy boshqaruv yoki huquqlarni individual amalga oshirish o'rtasida maqbul tanlov uchun qo'shimcha vositalarga ega, chunki kengaytirilgan jamoaviy boshqaruvda mukofot puli to'lash orqali shartnomadan tashqari foydalanish rejimidan farqli o'laroq, huquq egasi o'z asaridan foydalanishni taqiqlash huquqini yo'qotmaydi, lekin buning uchun u uni tegishli jamoaviy boshqaruv tashkilotining repertuaridan chiqarib tashlashi kerak, ya'ni huquq egasi o'z asari keyinchalik foydalanilishini istamasa, u bu haqda jamoaviy boshqaruv tashkilotini xabardor qiladi, bu esa, o'z navbatida, foydalanuvchilarni xabardor qiladi.

O'zbekiston mualliflik va turdosh huquq egalari jamoat birlashmasi tashkilot a'zolari bo'lgan fan, adabiyot va san'at asarlari mualliflari, fonogrammalar ijrochilari, ishlab chiqaruvchilari hamda boshqa mualliflik va turdosh huquqlar sohiblarining mulkiy huquqlarini amalga oshirish hamda himoya qilish kabi maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'ygan.

Mualliflarning mulkiy huquqlarini himoya

qiluvchi nodavlat notijorat tashkilotining maqsad va vazifalari fan, adabiyot va san'at asarlari mualliflari, fonogrammalar ijrochilari, ishlab chiqaruvchilari va boshqa mualliflik hamda turdosh huquqlar egalarining mulkiy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish ularning O'zbekiston Respublikasi hududidagi mualliflik va turdosh huquqlarini amalga oshirish, ta'minlash hamda ularni jamoaviy boshqarishga ko'maklashishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati hamtashkilot a'zolari bo'lgan fan, adabiyot va san'at asarlari mualliflari, fonogrammalar ijrochilari, ishlab chiqaruvchilari va boshqa mualliflik hamda turdosh huquqlar egalarining mulkiy huquqlarini amalga oshirish hamda himoya qilish tashkilot ustavida qayd etilgan.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv tizimlarining normal ishlashi davrida ular, haqiqatan ham, zarur bo'lgan sohalarda mualliflar va boshqa huquq egalari tomonidan ularning huquqlarini jamoaviy boshqaruv tashkilotlari repertuaridan chiqarib tashlash holatlari juda kam uchraydi. Shunday qilib, professor Vaynke [12, 97-b.] Daniya Mualliflar Jamiyati KODA repertuaridan o'z huquqlarini chiqarib tashlashning faqat ikkita holatidan xabardorligi, u ham bo'lsa, mualliflarning o'z asarlaridan radioda foydalanish bo'yicha ekanligini yozadi.

Odatda, repertuardan chiqarib tashlash bilan bog'liq muammolar faqat huquqlarni amalga oshirishning yangi usullari kiritilishi bosqichida paydo bo'ladi. Odatda, huquq egalari asarlar, ijrolar, fonogrammalardan foydalanishning shunday sohalari mavjudligini yaxshi biladi. Ularda kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv usuli mualliflar, ijrochilar, fonogrammalar (radio, konsert faoliyati va boshqalar) ishlab chiqaruvchilarning huquqlarini amalga oshirishning yagona mumkin bo'lgan usuli hisoblanadi [13, 36–45-b.]. Shubhasiz, hozirgi vaqtda ushbu sohalarga asarlar va turdosh

huquqlar obyektlaridan ommaviy foydalanish – raqamli interaktiv tarmoqlar, multimedia mahsulotlari yaratish va ulardan foydalanish amalga oshiriladigan yangi yuqori texnologiyali yo'nalishlar ham qo'shildi, ammo bunda yangi kengaytirilgan jamoaviy boshqaruvni mualliflik huquqi bozori barcha ishtirokchilarining manfaatlarini hisobga olgan holda bosqichma-bosqich joriy etish zarur [14, 127–132-b.].

“Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni mulkiy mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni “kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv” tizimini yaratish imkoniyatini nazarda tutadi (O'zbekiston Respublikasi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonunning 57-moddasi 4-qismiga qarang).

Shu bilan birga, amaldagi qonunchilik asardan yoki turdosh huquqlar obyektidan ruxsatsiz foydalanishni taqiqlaydi, lekin potensial foydalanuvchiga tanlash imkoniyatini beradi: bunday ruxsatni foydalanuvchi mualliflik huquqi egasining o'zidan yoki mulkiy mualliflik huquqi va (yoki) turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarishni amalga oshiruvchi tashkilotdan olishi mumkin. Ya'ni fuqarolik huquqining umumiy qoidalariga asoslangan odatiy vakillik bilan bir qatorda, O'zbekiston Respublikasi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi Qonunning 57-moddasi 4-bandiga muvofiq, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot huquq egalari bilan olingan vakolatlar asosida foydalanuvchilar bilan asarlardan va turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish uchun shartnomalar tuzadi. Shartnomalarning shartlari foydalaniladigan asarlarning yoki turdosh huquqlar obyektlarining turi va hajmiga qarab aniqlanadigan bitta toifadagi barcha foydalanuvchilar uchun bir xil bo'lishi kerak. Mazkur tashkilotlar foydalanuvchilar bilan shartnomalar tuzishni yetarlicha asoslarsiz rad etishga haqli emas. Bunday shartnomalar ularda nazarda tutilgan usullar bilan barcha asarlardan va tur-

dosh huquqlar obyektlaridan foydalanishga ruxsat beradi hamda barcha huquq egalari-ning, shu jumladan, ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va oltinchi qismlariga muvofiq tashkilotga vakolatlarini bermagan huquq egalari-ning nomidan hamda ularning manfaatlarini ko'zlab taqdim etiladi. Huquq egalari-ning foydalanuvchilarga nisbatan bunday shartnomalar asosida ularning asarlaridan va turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanish bilan bog'liq barcha ehtimol tutilgan mulkiy e'tirozlari shartnomalar tuzgan mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilot tomonidan tartibga solinishi kerak.

Xulosalar

Xulosa o'rnida ta'kidlashimiz lozimki, bugungi kunda dunyoda intellektual mulkning iqtisodiyotga ta'siri ortib borishi bilan birga mualliflarning huquqlarini samarali boshqarish va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, sohaga oid qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirish har qachongidan ko'ra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon tajribasiga muvofiq, O'zbekistonda ham mualliflar va ijrochilarning o'zaro manfaatlarini, huquqlarini himoya qiladigan tashkilotlar, birlashmalar, jamiyatlar, klublar tuzish hamda intellektual mulk himoyasi bo'yicha dunyo miqyosidagi Xalqaro tashkilotlar bilan aloqani yo'lga qo'yish ayni muddaodir. Bunday jamiyatlar shoir, dramaturg, bastakor, ijrochilarni ixtiyoriy ravishda birlashtirib, ularning huquqlarini himoya qilish, asarlar repertuarini tuzish, tegishli mualliflik haqlarini yig'ish va taqsimlash, shuningdek, xorijiy muallif va ijrochilar huquqlari, manfaatlarini respublikamiz hududida himoya qilish kabi maqsadlar asosida faoliyat yuritishi kerak. Respublikamizda mavjud intellektual mulk huquqini himoya qilish bo'yicha konsalting idoralari sonini oshirish bilan birga ular faoliyatini hozirgi global axborot almashinuvi jamiyati talablariga moslashtirish lozim.

Mavjud boy xorijiy tajribaga asoslanib, yuqorida sanab o'tilgan va boshqa manbalar orqali O'zbekiston tashkilotlarida ham max-

sus jamg'armalar tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu mablag'lar mamlakatning jamoaviy boshqaruv tashkilotlari uchun madaniyatni qo'llab-quvvatlash, mualliflar va boshqa huquq egalari-ning yordam ko'rsatish, shuningdek, boshqa ijtimoiy manfaatli maqsadlarga erishish bo'yicha ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'ladi. Shuningdek, mamlakatdagi mavjud sharoitlarni hisobga olgan holda, huquq egalari va vakolatli ijroiya organlari tomonidan bunday mablag'larning sarflanishini samarali nazorat qilish uchun barcha imkoniyatlarni ta'minlash, ayniqsa, muhimdir. Jamoaviy boshqaruv tashkilotlari tomonidan maxsus jamg'armalar yaratish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risida qonunchilik darajasida ham, qonun osti hujjatlarida ham normativ jihatdan batafsil qoidalarni belgilash maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, mahalliy madaniyat va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash faoliyati mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlarning eng muhim vazifalaridan biri sifatida qonun hujjatlarida mustahkamlab qo'yilishi kerak.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham mualliflik huquqi jamiyatlari milliy madaniyat va uning vakillarini qo'llab-quvvatlashning turli tizimlarini ta'minlaydi. Masalan, Tunisdagi Mualliflar jamiyati (800AST) o'z qoidalari-nda pensiya yoshidagi a'zolariga yordam va boshqa turli xil to'lovlarni tartibga soluvchi shartlarni belgilaydi. Argentinada ARGENTOR.ES mualliflik jamiyatining nizom hujjatlarini tibbiy yordam ko'rsatish, subsidiyalar, kreditlar va pensiyalar berish shaklida o'zaro yordamni nazarda tutadi [15, 48–52-b.]. Meksikada mualliflik huquqi himoyalangan asarlardan foydalanganlik uchun royalti yig'iladi va tegishli jamiyatlar bu royaltidan xayriya maqsadlarida foydalanadilar [16, 1132–1135-b.].

Shuningdek, mualliflik va turdosh huquqlar, xususan, intellektual mulk bozorini tartibga solishda institutsional mu-

ammolardan biri bu televidenie faoliyati bilan bog'liq. Ma'lumki, televidenie, bir tomondan, mualliflik va turdosh huquqlar obyektlarini vujudga keltiruvchi dargoh, ikkinchi tomondan, bunday turdosh obyektlardan eng asosiy foydalanuvchilardan biri hisoblanadi. Bunday foydalanishda televidenie o'z milliy manfaatlari va mamlakat ijodkorlari manfaatlarini hisobga olmog'i lozim. Bugungi kunda G'arbiy Yevropaning ko'pgina davlatlarida televideniada ko'rsatilayotgan xorijiy filmlarni kvotalashtirish mavjud. Masalan, Fransiya filmlaridan AQSh telestudiyalari qancha foydalangan bo'lsa, Fransiyada

ham AQSh filmlariga shuncha kvota belgilanadi. Bu, bir tomondan, valyutaning mamlakatdan tashqariga chiqib ketishiga to'siq bo'lsa, ikkinchi tomondan, xorijiy davlatlarda o'zbekistonlik subyektlar tomonidan yaratilgan mualliflik va turdosh huquqlar obyektlarining kengroq qo'llanishiga olib kelar edi. O'zbekiston Respublikasi televideniesi hozircha bunday kvotalashtirishni MDH mamlakatlari uchun joriy etsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bozor tizimi tovar-pul munosabatlarining eng maqbul, eng optimal huquqiy shakli sifatida shartnomalardan keng foydalanishni taqozo etadi.

REFERENCES

1. Yuldashev A.A. Mualliflik huquqini muhofaza qilishning shartnomaviy-huquqiy asoslari [Contractual and legal basis of copyright protection]. PhD thesis. Tashkent, 2020, p. 41.
2. Kollektivnoe upravlenie avtorskim pravom i smejnimi pravami Issledovaniya i rekomendatsii po sozdaniyu i deyatelnosti organizatsiy po kollektivnomu upravleniyu pravami [Collective management of copyright and related rights Research and recommendations on the establishment and operation of an organization for the collective management of rights]. Jeneva, VOIS, 1999. Available at: <https://www.wipo.int/copyright/ru/management/index.html/>.
3. Zyatiskiy S. Problemi realizatsii avtorskix i smejnix prav na kollektivnoy osnove v usloviyax razvitiya novix texnologiy [Problems of implementation of copyright and related rights on a collective basis in the context of the development of new technologies]. Moscow. 2003, pp. 27–38.
4. Gavrilov E.P. Pravo intellektual'noy sobstvennosti. Avtorskoe pravo i smejnie prava. XXI vek [Intellectual property right. Copyright and related rights. XXI century]. Moscow, Yurservitum Publ., 2016, pp. 425–446.
5. Postoyanniy komitet po avtorskomu pravu i smejnim pravam [Standing Committee on Copyright and Related Rights Thirty-eighth session Geneva]. Jeneva, VOIS, 38 ses., 2019, pp. 23–30. Available at: https://www.wipo.int/edocs/mdocs/copyright/ru/sccr_38/sccr_38_11.pdf/.
6. Nasriev I.I. Muallifning shaxsiy huquqlarini himoyalash [Protection of the non-property rights]. Tashkent, Mehnat Publ., 2003, pp. 45–57.
7. Toshev B.N. Mualliflik huquqi [Copyright]. Tashkent, 2010, pp. 28–37.
8. The biography of Firmin Ge'mier may be found online. Available at: www.answers.com/topic/firmin-ge-mier/ (accessed 17.01.2010).
9. Yakubova I.B. O'zbekistonda mualliflik huquqi bo'yicha mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining vujudga kelishi va rivojlanishi [Emergence and development of organizations of collective management of copyright property rights in Uzbekistan]. *Yurisprudensiya – Jurisprudence*, 2021, no. 6, pp. 66–74.

10. Leanovich E.B. Problemi pravovogo regulirovaniya internet-otnosheniy s inostrannim elementom [Problems of legal regulation of Internet relations with a foreign element]. Available at: <http://www.evolution.info/>.
11. Zyatskiy S. Problemi realizatsii avtorskix i smejnix prav na kollektivnoy osnove v usloviyax razvitiya novix texnologiy [Problems of implementation of copyright and related rights on a collective basis in the context of the development of new technologies]. Moscow, 2003, p. 36.
12. Vaynke V. Avtorskoe pravo. Reglamentasiya, osnovi, budushee [Copyright. Regulations, fundamentals, future]. Denmark, 1979, p. 97.
13. Oqyulov O. Intellektual mulkning huquqiy maqomi [Legal status of intellectual property]. Tashkent, 2000, pp. 36–45.
14. Stanieri A., Zeleznikow J., Gawler M., Lewis B. A hybrid-neutral approach to automation of legal reasoning in the discretionary domain of family law in Australia. *Artificial intelligence and law*, 1999, no. 7 (2-3), pp. 127–132.
15. Brams S.J., Taylor A.D. Fair division from cake cutting to dispute resolution. Cambridge, Cambridge University Press, 1996, pp. 48–52.
16. Yakubova I., Yakubov A. Problems Of Copyright Protection: Plagiarism And Piracy On The Internet. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education*, 2021, vol. 12, no. 4, pp. 1132–1135. DOI: 10.17762/turcomat.v12i4.625/.